

2022- yilning yanvar-iyun oylarida Navoiy viloyatining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 6 023,7 mlrd. so'mni yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 103,7 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar 5 773,2 mlrd. so'mni (103,7 %), o'rmon xo'jaligi – 183,9 mlrd. so'mni (102,5 %), baliqchilik xo'jaligi – 66,6 mlrd. so'mni (100,8 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarkibida Navoiy viloyatining ulushi 4,6 % ni tashkil etdi.

**6 023,7****Navoiy viloyati bo'yicha
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
mahsulot (xizmat) larining hajmi, mlrd. so'm**

01

**5 773,2****Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik
va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar**


02

**183,9****O'rmon xo'jaligi**


03

**66,6****Baliqchilik xo'jaligi**

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) lar hajmining o‘shish sur‘ati




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi, (% da).



- O‘rmon xo‘jaligi
- Baliqchilik xo‘jaligi
- Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar
- Dehqonchilik
- Chorvachilik
- Ovchilik va qishloq xo‘jaligi sohasidagi xizmatlar

2022- yilning yanvar-iyun yakunlariga ko'ra, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) lar umumiy hajmining 95,8 % i –dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar, 3,1 % i – o'rmon xo'jaligi, 1,1 % i – baliqchilik xo'jaligi hissasiga to'g'ri keladi.


Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining hajmi (mlrd.so'm)



2022- yilning yanvar- iyun oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining eng yuqori hajmi Xatirchi (1 709,5 mlrd. so'm), Qiziltepa (1 163,0 mlrd. so'm) va Navbahor (949,6 mlrd. so'm) tumanlariga qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Zarafshon (31,7 mlrd. so'm), Navoiy shahar (36,4 mlrd. so'm) larini keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'ati Konimex tumani (107,9 %), Navbahor tumani (106,0 %), Karmana tumani (105,8 %), aksincha Uchquduq (102,3 %), Nurota (100,1 %), tumanlarida hamda G'ozg'on shahrida (98,5 %) esa past sur'atlar kuzatildi.


Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining o'sish sur'ati, (%) da




Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2022- yilning yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 5 741,2 mlrd. so'mni yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 103,8 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 1 523,4 mlrd. so'mni (110,8 %), chorvachilik mahsulotlari 4 217,8 mlrd. so'mni (101,5%) tashkil qildi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining tumanlar kesimida taqsimlanishi (%) da




Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 77,5 % i – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 18,3 % i – fermer xo'jaliklariga, 4,2 % i – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining tumanlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (%) da




2022-yilning yanvar- iyun oylari yakuniga ko'ra yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Qiziltepa tumanida (29,6 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng yuqori ulushi G'ozg'on shahrida (94,8 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Navoiy shahrida (35,1 %) qayd etildi.

Dehqonchilik


2022- yilning yanvar- iyun oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 1 523,4 mlrd. soʻmni yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 110,8 % ni tashkil etdi. Yetishtirilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 26,5 % ni tashkil qildi.

Donli ekinlar


Hajmi, ming tonna.



Oʻsish surʻati



Yetishtirilgan mahsulotning
xoʻjalik toifalari boʻyicha taqsimlanishi



Fermer xoʻjaliklari

Dehqon (shaxsiy
vordamchi) xoʻjaliklari


Qishloq xoʻjaligi faoliyatini
amalda oshiruvchi tashkilotlar



2022- yilning yanvar- iyun oylarida barcha toifadagi xoʻjaliklar tomonidan 190,9 ming tonna don (2021- yilning yanvar- iyungacha nisbatan 29,8 % ga koʻp) yetishtirildi. Don yetishtirish koʻrsatkichlarini xoʻjaliklar toifalari boʻyicha tahlil qilinganda, don yetishtirish umumiy hajmidan 89,8 % i fermer xoʻjaliklari hissasiga toʻgʻri kelishini koʻrsatmoqda.




Navoiy viloyati bo'yicha
donli ekinlar yetishtirish
hajmi, tonna




Kartoshka


Hajmi, ming tonna.



O'sish sur'ati




Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2022- yilning yanvar- iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 59,9 ming tonna kartoshka (2021- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 7,9 % ga ko'p) yetishtirildi. Kartoshka yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, kartoshka yetishtirish umumiy hajmidan 90,1 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Navoiy viloyati bo'yicha
kartoshka yetishtirish
hajmi, tonna




Sabzavotlar


Hajmi, ming tonna.



O'sish sur'ati




Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2022- yilning yanvar- iyul oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 67,9 ming tonna sabzavotlar (2021- yilning yanvar- iyuniga nisbatan 2,6 % ga ko'p) yetishtirildi. Sabzavot yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sabzavot yetishtirish umumiy hajmidan 85,6 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Navoiy viloyati bo'yicha sabzavotlar yetishtirish hajmi, tonna




Poliz ekinlari


Hajmi, ming tonna.



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Fermer xo'jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari


Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022-yilning yanvar- iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 8,5 ming tonna poliz ekinlari (2021-yilning yanvar-iyuniga nisbatan 4,0 % ga ko'p) yetishtirildi. Poliz ekinlarini yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, poliz yetishtirish umumiy hajmidan 80,9% i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Navoiy viloyati bo'yicha **poliz** ekinlari yetishtirish hajmi, tonna




Meva va rezavorlar


Hajmi, ming tonna.



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Fermer xo'jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari


Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022-yilning yanvar- iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 33,9 ming tonna meva va rezavorlar (2021- yilning yanvar-iyuniga nisbatan 4,4 % ga ko'p) yetishtirildi. Meva va rezavorlar yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, meva va rezavorlar yetishtirish umumiy hajmidan 69,7 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Navoiy viloyati bo'yicha meva va rezavorlar yetishtirish hajmi, tonna




Uzum


Hajmi, tonna.



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Fermer xo'jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari


Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022- yilning yanvar- iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 2,2 ming tonna uzum (2021- yilning yanvar- iyuniga nisbatan 8,9 % ga ko'p) yetishtirildi. Uzum yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, uzum yetishtirish umumiy hajmidan 80,7 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Navoiy viloyati bo'yicha
uzum yetishtirish
hajmi, tonna



Chorvachilik

2022- yilning yanvar- iyun oylarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 4 217,8 mlrd. soʻmni yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 101,5 % ni tashkil qildi. Yetishtirilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 73,5 % ni tashkil etdi.

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish boʻyicha choratadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam koʻrsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining koʻpayishiga, ichki isteʼmol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan toʻldirishga imkon yaratdi.




2022- yilning yanvar- iyun oylarida barcha toifadagi xoʻjaliklar tomonidan tirik vaznda 78,4 ming tonna goʻsht (2021- yilning yanvar- iyuniga nisbatan 1,6 % ga koʻp), 224,6 ming tonna sut (1,4 % ga


ko'p), 184,0 mln. dona tuxum (1,4 % ga ko'p) yetishtirildi va 4 208,0 tonna baliq (1,0 % ga ko'p) ovlandi.

Go'sht (tirik vaznda)


Hajmi, ming tonna.



O'sish sur'ati




Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2022-yilning yanvar- iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 78,4 ming tonna go'sht (2021-yilning yanvar-iyuniga nisbatan 1,6 % ga ko'p) yetishtirildi. Go'sht yetishtirish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht yetishtirish umumiy hajmidan 89,0 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.




Navoiy viloyati bo'yicha **go'sht** (*tirik vaznda*) yetishtirish hajmi, tonna




Sut


Hajmi, ming tonna.



O'sish sur'ati




Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2022-yilning yanvar- iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 224,6 ming tonna sut (2021- yilning yanvar- iyuniga nisbatan 1,4 % ga ko'p) yetishtirildi. Sut yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut yetishtirish umumiy hajmidan 92,3 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Navoiy viloyati bo'yicha **sut** yetishtirish hajmi, tonna




Tuxum


Hajmi, mln. dona



O'sish sur'ati




Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2022-yilning yanvar- iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 183,9 mln. dona tuxum (2021-yilning yanvar- iyuniga nisbatan 1,4 % ga ko'p) yetishtirildi. Tuxum yetishtirish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum yetishtirish umumiy hajmidan 74,2 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.




Navoiy viloyati bo'yicha **tuxum** yetishtirish hajmi, ming dona




Baliq ovlash


Hajmi, tonna.



O'sish sur'ati




Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




2022-yilning yanvar- iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 4208,0 tonna (2021-yilning yanvar- iyuniga nisbatan 1,0 % ga ko'p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 72,1 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.



Navoiy viloyati bo'yicha ovlangan **baliq** hajmi, tonna




Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2022- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 8,4 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 89,5 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 2,1 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 26,6 % i fermer xo'jaliklariga, 59,2 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 14,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 12,3 % i fermer xo'jaliklariga, 62,9 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 24,8 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.


2022- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 502,8 ming taga yetdi. 2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 7,4 ming taga (1,5 %) ko'paydi.

Yirik shoxli qoramollar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Fermer xo'jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari


Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 89,5 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.




Navoiy viloyati bo'yicha yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni, ming bosh




2022- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, sigirlarning umumiy bosh soni 202,5 ming taga yetdi. 2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda sigirlar bosh soni 0,5 ming taga (0,2 %) ko'paydi.

Sigirlar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati




Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Fermer xo'jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari


Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, sigirlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami sigirlarning 91,7 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.




Navoiy viloyati bo'yicha sigirlarning umumiy bosh soni, ming bosh




2022- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, qo'y va echkilarning umumiy bosh soni 2 408,7 ming taga yetdi. 2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda qo'y va echkilar bosh soni 82,0 ming taga (3,5 %) ko'paydi.

Qo'y va echkilar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Fermer xo'jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari


Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, qo'y va echkilar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami qo'y va echkilarning 59,2 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.




Navoiy viloyati bo'yicha qo'y va echkilarning umumiy bosh soni, ming bosh




2022-yilning 1- iyul holatiga ko'ra, otlarning umumiy bosh soni 21 971 taga yetdi. 2021-yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda otlar bosh soni 666 taga (3,3 %) ko'paydi.

Otlar


Soni, bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Fermer xo'jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari


Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022-yilning 1- iyul holatiga ko'ra, otlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami otlarning 53,4 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.




Navoiy viloyati
bo'yicha **otlarning**
umumiy bosh soni, bosh




2022- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, parrandalarning umumiy bosh soni 3 240,8 ming taga yetdi. 2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda parrandalar bosh soni 116,1 ming taga (3,7 %) ko'paydi.

Parrandalar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Fermer xo'jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari


Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, parrandalar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 62,9 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.



Navoiy viloyati bo'yicha parrandalarning umumiy bosh soni, ming bosh



Qishloq xo'jaligi va ekologiya
statistikasi bo'limi

• 79- 223-23-40
• 79- 222-04-43